



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№4 (2)



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, aprel.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

RAQAMLI IQTISODIYOTDA “AKT XIZMATLARI” TUSHUNCHASI VA ULARNING EKSPORT SALOHİYATI.....	14
Shermatov Sherzod Xotamovich RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI	20
Amonov Mirzohid Tuymuratovich, Xodjayev Anvar Rasulovich TIJORAT BANKLARINING BYUDJET MABLAG’LARI HISOBIGA MOLİYALASHTIRILADIGAN LOYIHALARDAGI ISHTIROKINI KUCHAYTIRISH MEXANIZMLARI	26
Maxmudov Rahimjon Hamid o’g’li KORPORATIV BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING STRATEGIK YO’NALISHLARI.....	33
Shakirova Gulbaxor Sharipdjanovna YASHIL IQTISODIYOTGA O’TISHDA XORIJIY TAJRIBALAR TAHLILI VA UNI O’ZBEKISTON SHAROITIDA QO’LLASH IMKONIYATLARI	38
Ne’matova Mavsuma, Xolmamatov Diyorbek ВЛИЯНИЕ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ НА ИНВЕСТИЦИОННУЮ АКТИВНОСТЬ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	43
Буранова Лола Вахобовна ФИНТЕХ-ЭКОСИСТЕМА КАК ФАКТОР ИНКЛЮЗИВНОГО И УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА: СТРУКТУРНЫЙ АНАЛИЗ И ПЕРСПЕКТИВЫ ТРАНСФОРМАЦИИ	54
Эшмуротов Дониёр Ихтиёр угли ZAMONAVIY MARKETING KONSEPSIYALARI ASOSIDA XIZMATLAR RAQOBATBARDOSHLIGINING USLUBIY JIHATLARI.....	60
Ostonaqulova Gulsaraxon Matyoqub qizi, Fayzullayeva Zamira Alijonovna XIZMAT KO’RSATISH KORXONALARINING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHDA SERVIS XAVFSIZLIGI INDEKSI: SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA	64
Shodmanova Zubayda Ubaydullayevna QURILISH FAOLIYATI SOHALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING ILG’OR XORIJIY TAJRIBALARI	
Xusanov Kamoliddin Xolmamat o’g’li INSON KAPITALI VA KADRLAR SALOHİYATINI BOSHQARISHNING NAZARIY KONSEPSIYALARI	73
Abdullo Sohobov O’ZBEKISTONDA URBANIZATSIYA JARAYONLARI JADALLASHUVI VA UNING HUDUDIY XUSUSIYATLARI	84
Mamanazarov Oybek Shomurodovich KORXONALAR MOLİYAVIY HOLATINI MOLİYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI (MHXS) ASOSIDA BAHOLASHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	91
Xamidov Javoxir Shavkat o’g’li BIZNES JARAYONLARINI MONITORING QILISH TIZIMINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI.....	95
Dadajonova Madina Ravshan qizi O’ZBEKISTON VA XORIJIY MAMLAKATLARDA BENEFITSIAR MULKDOR KONSEPSIYASINI QO’LLASHNING DOLZARB MASALALARI	100
Ochilov Farhod Malikovich O’ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTGA O’TISHNING MAKROIQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH (GDP, BANDLIK VA INVESTITSIYALAR KESIMIDA).....	106
Hayitov Jamshid Xolboyevich	



INVESTITSION JOZIBADORLIKKA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILI.....	111
Mamatqulova Hafiza Bahodir qizi IPOTEKA BOZORI MUAMMOLARINING EMPERIK TAHLILI VA ULARNI BARTARAF ETISH STRATEGIYALARI.....	118
Olokulova Feruza Mansurovna, Safarova Dilrabo Baxriddin qizi MILLIY IQTISODIYOT RAQOBATIDA NAZARIY VA AMALIY QARASHLAR.....	122
Karimova Iroda Abdusattarovna KORPORATIV BANK XIZMATLARIGA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR HAMDA ZAMONAVIY BIZNES MODELLARNI JORIY ETISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI.....	128
Qurbonov Abror Abdullayevich GREEN ECONOMY DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN AND INDONESIA: A COMPARATIVE STUDY.....	133
Ibrokhimova Iroda Ikromjon Kizi. Askolani. Javliyev Nuriddin Bektemir o'g'li AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHDA REKRUTING AGENTLIKLARINING O'RNI.....	142
Sherkulova Nodirabegim Baxordin qizi ФАКТОРЫ ТЕКУЧЕСТИ КАДРОВ И МЕХАНИЗМЫ УДЕРЖАНИЯ ПЕРСОНАЛА В СОВРЕМЕННЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ УЗБЕКИСТАНА.....	148
Джураева Гузаль Шавкатовна BUDJET DAROMADLARI TARKIBIDAGI SOLIQLARNING ULUSHINI BOSHQARISH.....	156
Abduraxmonova Gulmira Sobir qizi RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA AVTOSERVIS SHOHOVCHALARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	161
Marqayev Xurshid Aliqulovich THE ECONOMIC NATURE OF HUMAN CAPITAL AND ITS RECOGNITION IN ACCOUNTING AS AN OBJECT OF ECONOMIC ANALYSIS.....	165
Zafar Qodirov Abdivaxobovich O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARINING SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	170
Ibragimov G'ayrat Ablaqulovich. Tursunov Ozod Matlubovich Shukurova Nilufar Qahramonova IMPROVING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE SERVICES IN THE DIGITAL ECONOMY.....	175
Mirzaev Kulmamat Djanzakovich NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARI MOLIYAVIY BARQARORLIGINI BAHOLASHDA INTEGRAL KO'RSATKICHLAR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	179
Aliyev Arslon Salom o'g'li A STUDY ON THE COLLABORATIVE MECHANISM OF DIGITAL ARCHIVES GOVERNANCE AND TALENT GOVERNANCE: AN ANALYSIS BASED ON JOB COMPETENCY, PERFORMANCE EVALUATION, AND ORGANIZATIONAL EFFECTIVENESS.....	184
Wang Biao USTAMA ISHLAB CHIQUARISH XARAJATLARINING MAZMUNI VA UNI XALQARO STANDARTLARGA MUVOFIQ TAKOMILLASHTIRISH.....	190
Tashnazarova Dilfuza Samiddinovna INTEGRATSIYA SAMARADORLIGINI O'LCHASHNING METODOLOGIK MODELI VA INDIKATORLAR TIZIMI.....	195
Aliqulov Abbas Baxtiyor o'g'li XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA XIZMATLAR SIFATINI TAKOMILLASHTIRISH.....	202
Xudoyorov Lochinbek Bahromovich	



MOLIYAVIY HISOBOTLAR AUDITINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI.....	207
Elomonov Dadaxon Ozodullayevich	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA IQTISODIY RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI	213
L.S. Azimova	
THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF IFRS AND FINANCIAL REPORTING	218
Tojiboyev Abdullajon Kamoliddin o'g'li	
PAXTA-TO'QIMACHILIK SANOATIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIKNING HUQUQIY ASOSLARI	223
Abdullayev Hamidulla Abdug'ani o'g'li	
TURIZM KORXONALARIDA XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISH ORQALI RAQOBATBARDOSHLIKNI KUCHAYTIRISHNING ZAMONAVIY BOSHQARUV MEXANIZMLARI	227
Ergasheva Zarifa Baxtiyarovna	
CHO'L-YAYLOV CHORVACHILIGI MAJMUASI RIVOJLANTIRISH	232
Nurmanov Sherzod Xujayarovich	
KREDITORLAR REYTINGINI MASHINAVIY O'QITISHGA ASOSLANGAN BASHORATLASH ALGORITMLARI	237
Beknazarov Ulug'bek Zafar o'g'li	
MIKROIQTISODIYOTDA ISTE'MOLCHILAR XULQ-ATVORI VA TALAB SHAKLLANISHI OMILLARI	242
Raximov Azizbek Saliyevich	
OLIY TA'LIMNI MOLIYALASHTIRISHNING ILG'OR XORIJIY Tajribasi: AQSH MISOLIDA.....	246
Kurbanov Baxodir Negmatullayevich	
O'ZBEKISTON TURIZM INDUSTRIYASINI BOSHQARISHDA INNOVATSION YONDASHUVLARNI JORIY ETISH USULLARI	250
Ashurova Shaxnoza Almasovna	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI KORXONALARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING NAZARIY ASOSLARI.....	257
Sharipova Shahlo Istamovna	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA XIZMATLAR SIFATINI TAKOMILLASHTIRISH.....	262
Xudoyorov Lochinbek Bahromovich	
BANKLARDA YASHIL DEPOZITLAR TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING DAVLAT MOLIYA SIYOSATIDAGI O'RNI.....	267
Maxmudov Rahimjon Hamid o'g'li	
XIZMATLAR SOHASIDA MIJOZ QONIQISHINI OSHIRISH MEXANIZMLARI: QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA	278
Aqsungul Usenova Tenel qizi, Qoraqalpoq davlat universiteti	
Dawletmuratov Adilbay Mirzaboyevich	
O'ZBEKISTONDA QANDOLAT MAHSULOTLARI BOZORINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI.....	283
Azlarova Munira Muhammad-Amin qizi	
TA'LIM XIZMATLARI BOZORINI SHAKLLANTIRISH, RIVOJLANTIRISH VA KO'RSATKICHLARINI O'RGANISH.....	289
Bozorova Madina Raxmat qizi	
IMPROVING SERVICE QUALITY MONITORING IN SERVICE ENTERPRISES BASED ON DIGITAL TECHNOLOGIES	294
Xudoyorov Lochinbek Bahromovich	
KREDITLASH MEXANIZMINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI VA UNING TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI	299
Ortiqov Husan Usmonaliyevich	



O'ZBEKISTONDA QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORI MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH YO'NALISHLARI	304
Abdusalomov Ozodbek Baxtiyor o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARINING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA SERVIS XAVFSIZLIGI INDEKSI: SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA	311
Shodmanova Zubayda Ubaydullayevna	
O'ZBEKISTONDA EKSPORTNI OSHIRISHDA AKT RIVOJLANISHINING O'RNI.....	315
Sadriddinov Ulug'bek Jaloliddin o'g'li	
QURILISH FAOLIYATI SOHALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING ILG'OR XORIJIY TAJRIBALARI.....	322
Xusanov Kamoliddin Xolmamat o'g'li	
INSON KAPITALI VA KADRLAR SALOHİYATINI BOSHQARISHNING NAZARIY KONSEPSIYALARI	326
Abdullo Sohibov	
SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA TIJORAT BANKLARIDA RISK-MENEJMENT SAMARADORLIGINI OSHIRISH	331
Davronov Sanjar Ziyotovich	



SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA TIJORAT BANKLARIDA RISK-MENEJMENT SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Davronov Sanjar Ziyotovich

“Ipak Yo‘li” AIT banki, “Protssessing markazi” boshqarmasi,
Milliy to‘lovlar tizimining kliring amaliyotlari bo‘limi boshlig‘i

Annotatsiya. Mazkur maqolada tijorat banklari faoliyatida risk-menejment tizimini sun'iy intellekt texnologiyalari asosida takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etilgan. Bank tizimida kredit riski, likvidlik riski, operatsion risk, bozor riski va firibgarlik xatarlarini boshqarishda sun'iy intellekt texnologiyalarining o'rni tahlil qilinib, an'anaviy risk-boshqaruv yondashuvlarining cheklovlarini yoritilgan. Maqolada mashinaviy o'rganish, prediktiv analitika, katta ma'lumotlar tahlili, sun'iy neyron tarmoqlar va real vaqt monitoringi asosida risklarni aniqlash, baholash va oldindan prognozlash imkoniyatlari ochib berilgan. Shuningdek, tijorat banklarida risk-menejment tizimini takomillashtirish bo'yicha kompleks model taklif etilib, unda ma'lumotlar integratsiyasi, algoritmik baholash, erta ogohlantirish mexanizmlari, adaptiv nazorat va qarorlarni qo'llab-quvvatlash tizimlari yagona tizim sifatida asoslangan. Tadqiqot natijalari sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish bank risklarini boshqarish samaradorligini oshirish, yo'qotishlar ehtimolini kamaytirish hamda moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qilishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, risk-menejment, tijorat banklari, kredit riski, bozor riski, operatsion risk, prediktiv analitika, mashinaviy o'rganish, firibgarlikni aniqlash, raqamli bank.

Аннотация. В данной статье исследованы теоретические и практические аспекты совершенствования системы риск-менеджмента в деятельности коммерческих банков на основе технологий искусственного интеллекта. Проанализирована роль технологий искусственного интеллекта в управлении кредитным риском, риском ликвидности, операционным риском, рыночным риском и рисками мошенничества, а также раскрыты ограничения традиционных подходов к управлению рисками. В статье рассмотрены возможности выявления, оценки и прогнозирования рисков на основе машинного обучения, предиктивной аналитики, анализа больших данных, искусственных нейронных сетей и мониторинга в реальном времени. Кроме того, предложена комплексная модель совершенствования системы риск-менеджмента в коммерческих банках, включающая интеграцию данных, алгоритмическую оценку, механизмы раннего предупреждения, адаптивный контроль и системы поддержки принятия решений как единую систему. Результаты исследования показывают, что использование технологий искусственного интеллекта способствует повышению эффективности управления банковскими рисками, снижению вероятности потерь и укреплению финансовой устойчивости.

Ключевые слова: искусственный интеллект, риск-менеджмент, коммерческие банки, кредитный риск, рыночный риск, операционный риск, предиктивная аналитика, машинное обучение, выявление мошенничества, цифровой банк.

Annotation. This article examines the theoretical and practical aspects of improving risk management systems in commercial banking through the use of artificial intelligence technologies. It analyzes the role of AI in managing credit risk, liquidity risk, operational risk, market risk, and fraud risk, while highlighting the limitations of traditional risk management approaches. The study explores the capabilities of machine learning, predictive analytics, big data analysis, artificial neural networks, and real-time monitoring for identifying, assessing, and forecasting risks. Furthermore, a comprehensive model for enhancing risk management systems in commercial banks is proposed, integrating data systems, algorithmic evaluation, early warning mechanisms, adaptive control, and decision support systems into a unified framework. The findings demonstrate that the application of AI technologies improves the efficiency of risk management, reduces the likelihood of losses, and strengthens financial stability.

Keywords: artificial intelligence, risk management, commercial banks, credit risk, market risk, operational risk, predictive analytics, machine learning, fraud detection, digital banking.



KIRISH

Zamonaviy bank tizimida risk-menejment bank faoliyatining ajralmas strategik tarkibiy qismiga aylangan. Tijorat banklari kreditlash, investitsiya, to'lovlar, valyuta operatsiyalari, likvidlikni boshqarish va mijozlar bilan ishlash jarayonida turli xil moliyaviy va nomoliyaviy xatarlar bilan to'qnashadi. Ayniqsa, raqamli transformatsiya, masofaviy bank xizmatlari, elektron to'lovlar va fintech ekotizimlarining kengayishi risklarning shakli, manbasi va tezligini yanada murakkablashtirmoqda. Shu sharoitda an'anaviy risk-menejment yondashuvlari ko'p hollarda yetarli darajada tezkor, chuqur va moslashuvchan bo'la olmayapti [1].

An'anaviy bank risk-menejmenti odatda tarixiy ma'lumotlarga, statik modellarga va ekspert baholariga tayanadi. Bunda risklarni aniqlash va baholash jarayonlari ko'pincha davriy hisobotlar bilan cheklanadi, bu esa muammolarni yuzaga chiqqanidan keyin aniqlashga olib keladi. Sun'iy intellekt texnologiyalari esa risklarni real vaqt rejimida kuzatish, katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash, yashirin bog'liqliklarni aniqlash va muqobil stsenariylar asosida ehtimoliy yo'qotishlarni oldindan baholash imkonini beradi [2].

Shu nuqtai nazardan, tijorat banklari faoliyatida risk-menejment tizimini sun'iy intellekt asosida takomillashtirish masalasi ilmiy hamda amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi. Mazkur maqolaning maqsadi tijorat banklarida risk-menejment tizimini sun'iy intellekt texnologiyalari asosida takomillashtirishning nazariy asoslarini yoritish, asosiy yo'nalishlarini tahlil qilish hamda amaliy model taklif etishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Risk-menejment nazariyasi moliyaviy menejment va bank boshqaruvi tizimining eng muhim yo'nalishlaridan biri sifatida uzoq yillardan buyon ilmiy jihatdan tadqiq etib kelinmoqda. Jorion risk-menejmentni moliyaviy yo'qotishlar ehtimolini aniqlash, o'lchash va nazorat qilishga qaratilgan tizimli boshqaruv jarayoni sifatida talqin qiladi [3]. Uning qarashlariga ko'ra, risklarni boshqarish nafaqat himoyalalanish mexanizmi, balki aktivlar sifati, daromadlilik va kapital barqarorligini saqlash vositasidir.

Hull risklarni boshqarishda statistik modellar, ehtimollik nazariyasi va stsenariy tahlilining muhimligini asoslaydi [4]. Ayniqsa, bozor riski va kredit riskini baholashda matematik yondashuvlar banklar uchun muhim analitik vosita bo'lib xizmat qiladi. Biroq, zamonaviy raqamli sharoitda bu modellar ko'pincha dinamik ma'lumotlar oqimi va murakkab xatti-harakatlarni to'liq aks ettira olmaydi.

Basel qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan xalqaro tamoyillar bank risklarini boshqarishda kapital yetarliligi, nazorat, ichki baholash va monitoring tizimlariga alohida urg'u beradi [1]. Ushbu me'yoriy yondashuv banklarda risk-menejmentning institutsional asosini belgilab bergan bo'lsa-da, sun'iy intellekt vositalari ushbu tamoyillarni yanada samarali ijro etish uchun yangi imkoniyatlarni yaratmoqda.

Sun'iy intellekt va mashinaviy o'rganishning moliyaviy xizmatlardagi roli haqida tadqiqotlar so'nggi yillarda keskin ko'paydi. Goodfellow, Bengio va Courville sun'iy neyron tarmoqlar hamda chuqur o'rganish usullarining murakkab andozalarni aniqlashdagi yuqori imkoniyatlarini ko'rsatadi [5]. Bu yondashuv bank risk-menejmentida, ayniqsa kredit skoring, firibgarlikni aniqlash va tranzaksion monitoringda samarali hisoblanadi.

Davenport va Ronanki sun'iy intellektning biznesda uch asosiy funksiyasini ko'rsatadi: jarayonlarni avtomatlashtirish, ma'lumotlardan tahliliy xulosa olish va foydalanuvchi bilan o'zaro aloqani takomillashtirish [6]. Bank sektorida mazkur uch yo'nalish risk-menejment bilan bevosita bog'liq bo'lib, AI texnologiyalari risklarni oldindan ko'rish va ularga tezkor javob berish imkonini kengaytiradi.

Shuningdek, Khandani, Kim va Lo kredit riskini baholashda mashinaviy o'rganish modellari an'anaviy logistik regressiya usullariga nisbatan yuqoriroq aniqlik berishi mumkinligini ko'rsatgan [7]. Bu ilmiy natija tijorat banklarida sun'iy intellekt asosidagi risk-baholash tizimlarini joriy etish uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Mazkur tadqiqotda tijorat banklari faoliyatida risk-menejment tizimini sun'iy intellekt texnologiyalari asosida takomillashtirish masalasi kompleks yondashuv asosida o'rganildi. Tadqiqot metodologiyasi nazariy va empirik tahlil usullarining integratsiyasiga tayangan holda shakllantirildi.

Avvalo, tadqiqotning nazariy asosini risk-menejment nazariyasi, moliyaviy menejment konsepsiyalari hamda sun'iy intellekt va mashinaviy o'rganish bo'yicha zamonaviy ilmiy yondashuvlar tashkil etdi. Mazkur bosqichda ilmiy adabiyotlar tahlili (literature review), tizimli tahlil va taqqoslash usullaridan foydalanilib, an'anaviy va AI asosidagi risk-boshqaruv modellarining ustun va zaif tomonlari aniqlashtirildi.

Empirik tadqiqot qismi tijorat banklarida risklarni boshqarish jarayonlarini modellashtirishga qaratildi. Bunda statistik tahlil, ekonometrik modellashtirish va korrelyatsion tahlil usullari qo'llanildi. Xususan, risk omillari va bank faoliyati natijalari o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash uchun ko'p omilli regressiya modellari, shuningdek, risk darajasi va yo'qotishlar ehtimolini baholashda ehtimollik yondashuvlaridan foydalanildi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Tijorat banklarida risk-menejment tizimini sun'iy intellekt texnologiyalari asosida takomillashtirish, avvalo, risklarni boshqarishning mohiyatini reaktiv modeldan proaktiv modelga o'tkazadi. An'anaviy tizimlarda bank risklari odatda hodisa yuz berganidan so'ng yoki hisobot davri yakunida baholansa, AI asosidagi tizimlarda ma'lumotlar oqimi uzluksiz monitoring qilinib, muammolar yuzaga kelishidan oldin erta ogohlantirish signallari shakllantiriladi. Bu esa bank risk-menejmentining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Birinchidan, sun'iy intellekt kredit riskini boshqarishda katta imkoniyatlar yaratadi. Kreditlash jarayonida qarz oluvchining moliyaviy holati, tranzaksiyon faolligi, to'lov intizomi, xulq-atvor ko'rsatkichlari va boshqa ko'plab parametrlar asosida murakkab skoring modellari qurilishi mumkin. An'anaviy baholash usullari ko'proq tarixiy moliyaviy hisobotlar va cheklangan ko'rsatkichlarga tayangan bo'lsa, AI modellari mijoz profilini ko'p o'lchovli formatda tahlil qiladi va defolt ehtimolini ancha aniqroq bashoratlaydi [7].

Ikkinchidan, sun'iy intellekt operatsion risklarni boshqarishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Bankning ichki jarayonlari, xodimlar faoliyati, texnik tizimlar va tranzaksiya oqimlaridagi anomal holatlar algoritmlar yordamida erta bosqichda aniqlanishi mumkin. Bu, ayniqsa, ichki nazorat, kiberxavfsizlik va xizmat ko'rsatish jarayonlarida muhimdir. Agar operatsion risklar o'z vaqtida aniqlanmasa, bank katta moliyaviy va reputatsion yo'qotishlarga duch kelishi mumkin.

Uchinchidan, firibgarlik risklarini aniqlashda sun'iy intellekt an'anaviy qoidaviy tizimlarga nisbatan ancha samarali hisoblanadi. Qoidaga asoslangan monitoring tizimlari faqat oldindan ma'lum sxemalarni aniqlashi mumkin, AI esa tranzaksiyalar ichidagi yashirin bog'liqliklarni, noodatij xatti-harakatlarni va dinamik o'zgarishlarni ham aniqlash imkonini beradi [5]. Bu esa real vaqt rejimida shubhali operatsiyalarni bloklash, qo'shimcha verifikatsiya mexanizmlarini ishga tushirish va zararlarining oldini olishga yordam beradi.

To'rtinchidan, sun'iy intellekt likvidlik va bozor risklarini boshqarishda ham muhim rol o'ynaydi. Valyuta kurslari, foiz stavkalari, mijozlar depozit xatti-harakati va to'lov oqimlari bo'yicha tarixiy hamda real vaqt ma'lumotlari asosida AI modellari bankning likvidlik ehtiyojlarini oldindan prognoz qilishi mumkin. Shu bilan birga, stsenariy modellashtirish orqali stress holatlaridagi ehtimoliy yo'qotishlar aniqlanadi va boshqaruv qarorlari uchun tayyor tavsiyalar shakllantiriladi [4].

1-jadval

An'anaviy va AI asosidagi bank risk-menejment tizimlarining taqqoslanishi

Mezon	An'anaviy tizim	AI asosidagi tizim
Risklarni aniqlash	Davriy va qo'lda	Real vaqt rejimida, avtomatik
Ma'lumot hajmi	Cheklangan	Keng qamrovli va ko'p manbali
Tahlil aniqligi	Nisbatan past yoki o'rtacha	Yuqori, ko'p parametrlari
Firibgarlikni aniqlash	Qoidaviy yondashuv	Anomaliyalarni o'rganish va bashoratlash
Kredit baholash	Standart skoring	Adaptiv, dinamik skoring
Qaror tezligi	Sekin	Tezkor va uzluksiz
Moslashuvchanlik	Past	Yuqori

Shu bilan birga, AI asosidagi risk-menejment tizimini joriy etish muayyan cheklov va xavflarni ham yuzaga keltiradi. Birinchidan, ma'lumotlar sifati past bo'lsa, model natijalari ham noto'g'ri bo'lishi mumkin. Ikkinchidan, ayrim algoritmlar "qora quti" xususiyatiga ega bo'lib, qarorlar asosini izohlash murakkablashadi. Uchinchidan, banklarda bunday tizimlarni joriy etish uchun yuqori malakali kadrlar, kuchli IT infratuzilma va axborot xavfsizligi talab etiladi. To'rtinchidan, AI asosidagi qarorlar etik va regulyativ talablar bilan uyg'unlashgan bo'lishi lozim [6].

Shu sababli, tijorat banklarida risk-menejment tizimini takomillashtirish quyidagi kompleks model asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.

2-jadval

Sun'iy intellekt asosida bank risk-menejment tizimini takomillashtirish modeli

Bosqich	Mazmuni	Kutiladigan natija
Diagnostika	Mavjud risk-menejment jarayonlari va ma'lumotlar bazasini baholash	Tizimning zaif nuqtalarini aniqlash
Ma'lumotlar integratsiyasi	Ichki va tashqi manbalarni yagona platformaga birlashtirish	To'liq va sifatlil ma'lumot bazasi



AI model tanlash	Kredit, fraud, likvidlik yoki bozor riski uchun mos algoritmlar tanlash	Soha bo'yicha aniq model
Pilot joriy etish	Kichik segmentda modelni sinovdan o'tkazish	Dastlabki samaradorlikni baholash
Erta ogohlantirish tizimi	Risk signallarini real vaqt rejimida kuzatish	Muammoni oldindan aniqlash
6. Qarorlarni qo'llab-quvvatlash	AI tavsiyalarini menejment jarayoniga integratsiya qilish	Qaror sifati va tezligini oshirish
7. Monitoring va qayta o'qitish	KPI va natijalar asosida modelni yangilash	Barqaror va adaptiv tizim

Mazkur modelning afzalligi shundaki, u risk-menejmentni alohida nazorat funksiyasi sifatida emas, balki bankning strategik boshqaruvi, operatsion faoliyati, ma'lumotlar infratuzilmasi va nazorat tizimi bilan integratsiyalashgan mexanizm sifatida ko'radi. Natijada risklarni boshqarish bank faoliyatining chekka elementi emas, balki qaror qabul qilishning markaziy komponentiga aylanadi.

Tadqiqot asosida quyidagi umumlashtirilgan ilmiy natijalar shakllantirildi. Birinchidan, sun'iy intellekt texnologiyalari risk-menejment tizimini reaktiv yondashuvdan proaktiv va prediktiv yondashuvga o'tkazadi. Ikkinchidan, tijorat banklarida kredit riski, operatsion risk, firibgarlik riski va bozor risklarini boshqarishda AI vositalari an'anaviy usullarga nisbatan yuqori tezkorlik va aniqlik beradi. Uchinchidan, AI asosidagi risk-menejment tizimining samaradorligi ma'lumotlar sifati, algoritmik shaffoflik, inson kapitali va regulativ moslik bilan chambarchas bog'liq. To'rtinchidan, eng samarali model — bu sun'iy intellekt analitikasi va professional risk-menejer ekspertizasining integratsiyasiga asoslangan gibriddir boshqaruv modelidir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tijorat banklari faoliyatida risk-menejment tizimini sun'iy intellekt texnologiyalari asosida takomillashtirish zamonaviy bank boshqaruvining muhim strategik yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, sun'iy intellekt risklarni aniqlash, baholash, prognozlash va monitoring qilish jarayonlarini sezilarli darajada takomillashtiradi. Ayniqsa, kredit riski, operatsion risk, firibgarlik va bozor risklarini boshqarishda AI texnologiyalari banklarga yuqori aniqlik, tezkorlik va adaptivlikni ta'minlaydi.

Maqolada asoslanganidek, bank risk-menejmentining samaradorligi faqat algoritmlarni joriy etish bilan emas, balki ma'lumotlar sifati, raqamli infratuzilma darajasi, mutaxassislar malakasi, boshqaruv madaniyati va nazorat tizimining yetukligi bilan ham belgilanadi. Shu bois, sun'iy intellektni bank risk-menejmentiga tatbiq etish kompleks institutsional yondashuvni talab qiladi.

Taklif etilgan model asosida tijorat banklarida quyidagi amaliy tavsiyalarni ilgari surish mumkin: risklarni baholash uchun ichki va tashqi ma'lumotlar bazasini integratsiyalash; kredit va fraud monitoringida mashinaviy o'rganish modellarini joriy etish; real vaqt rejimidagi erta ogohlantirish tizimlarini shakllantirish; AI algoritmlarining izohlanishini ta'minlash; risk-menejerlar va IT mutaxassislar o'rtasida yaqin hamkorlikni kuchaytirish; model natijadorligini aniq KPI ko'rsatkichlari asosida muntazam qayta baholab borish.

Shunday qilib, sun'iy intellekt texnologiyalari asosida takomillashtirilgan risk-menejment tizimi tijorat banklariga nafaqat xavflarni kamaytirish, balki strategik barqarorlikni mustahkamlash, yo'qotishlarni minimalashtirish va raqamli iqtisodiyot sharoitida raqobatbardoshlikni oshirish imkonini beradi. Demak, sun'iy intellekt bank risk-menejmentida qo'shimcha texnik vosita emas, balki zamonaviy moliyaviy boshqaruvning intellektual va strategik tayanchiga aylanmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Basel Committee on Banking Supervision. Principles for the Sound Management of Operational Risk. – Basel: Bank for International Settlements, 2011.
2. Stuart Russell, & Peter Norvig. Artificial Intelligence: A Modern Approach (4th ed.). – Pearson, 2021.
3. Philippe Jorion. Value at Risk: The New Benchmark for Managing Financial Risk (3rd ed.). – New York: McGraw-Hill, 2007.
4. John C. Hull. Risk Management and Financial Institutions (5th ed.). – Wiley, 2018.
5. Ian Goodfellow, Yoshua Bengio, & Aaron Courville. Deep Learning. – Cambridge, MA: MIT Press, 2016.



6. Thomas H. Davenport, & Rajeev Ronanki. Artificial Intelligence for the Real World // Harvard Business Review. – 2018. – Vol. 96, No. 1. – P. 108–116.
7. Amir E. Khandani, Adlar J. Kim, & Andrew W. Lo. Consumer credit-risk models via machine-learning algorithms // Journal of Banking & Finance. – 2010. – Vol. 34, No. 11. – P. 2767–2787.
8. Sylvain Bouteille, & Diana Coogan-Pushner. The Handbook of Credit Risk Management. – Wiley, 2021.
9. Alexander J. McNeil, Rüdiger Frey, & Paul Embrechts. Quantitative Risk Management. – Princeton University Press, 2015.
10. Kenneth C. Laudon, & Jane P. Laudon. Management Information Systems: Managing the Digital Firm. – Pearson, 2022.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 4 (2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>